

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK VA XUQUQIY  
TARBIYANI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI****Sanobar Ibadullayevna Abdullayeva**

Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bolalik paytidan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanni sevish, ardoqlash, unga bo‘lgan mehr-muhabbat hamda, sadoqat kabi tuyg‘ularni huquqbuzarliklar va ularning oqibatlarini tushuntirish orqali shakllantirish texnologiyasi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** vatanparvarlik, immunitet, milliy ma’naviy g’urur, tarbiyaning individual shakli, ma’naviy qadriyat.

Bugungi kunda vatanparvarlik va o‘z Vataniga muhabbat tuyg‘ularini saqlash va rivojlantirish davlat va jamiyatning strategik vazifasidir. Chunki aynan vatanparvarlik, aynan Batanni sevadigan keng xalq ommasi davlat va uning barcha aholisi xavfsizligi va barqarorligining garovidir. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiya mavzusi jamiyatda doimo muhimdir. Axir, mamlakatning kelajagi keyingi avlodlar hayotlarida qanday qadriyatlarga olib keladi. Yoshlarga o‘z mamlakatining iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini chuqurroq tushunishga, tabiatning go‘zalligi va o‘ziga xosligini va uning fuqarosi tomonidan munosib va foydali bo‘lish haqida o‘ylashga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Yosh avlodning vatanparvarligi haqidagi savollar vatanning sadoqati, davlatning qonunga bo‘sunadigan fuqarolari inson taraqqiyoti tarixidagi olimlarning diqqat markazida turishardi. Buyuk faylasuflar, o‘qituvchilar qadimgi zamonlardan bu masalaga jiddiy e‘tibor berishdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta‘lim sohasiga ham taalluqli bo‘lib bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Respublikamizda, bugungi kunda ta‘lim sohasining huquqiy asoslari yaratilgan. Ta‘lim sohasidagi islohotlarning muhim yo‘nalishi – bu mustaqil fikr qiladigan, mustahkam e‘tiqodga ega bo‘lgan, o‘z kasbini qadrlaydigan iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni aniqlash, ular bilan doimiy ravishda ta‘lim-tarbiya ishlarini olib borish natijasida ularning intellektual salohiyatlarini oshirishdan iborat. Bu sohada olib borilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlarning maqsad va mohiyati yosh avlodni ham jismonan, ham ma’nан, har tomonlama barkamol va sog‘lom, komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan. Ham ma’nан, ham ruhan sog‘lom inson har bir xalq, har bir millat, davlatning ertangi kun

kelajagidir. Jamiyatdagi huquqiy tarbiya mavjud tuzum, davlat va hokimiyat organlari, mahalla, oila, tashkilotlar va ularning faoliyati orqali amalga oshadi. Huquqiy tarbiya murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning muammolari huquqshunoslik, pedagogika va psixologiya, tarbiya fanlari doirasida tadqiq etiladi. Huquqiy tarbiya samaradorligi oila, mahalla, ta’lim-tarbiya muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy sohadagi faoliyatining bir-biri bilan bog‘liq holda amalga oshirishi bilan belgilanadi. Bu amalga oshirilgan ishlarning barchasi fuqarolarning, ayniqsa yosh avlodning huquqiy ongi va tafakkurini rivojlantirish, ularni har jihatdan barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zbek xalqining milliy-ma’naviy merosidan, qadriyatlaridan oqilona foydalanish orqali ularda faollikni oshirish, o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash uslubiyatini ishlab chiqish, shu jarayonning samaradorligini ta’minlovchi strategiyani ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda avval boshdan yosh avlodda vatanparvarlikni shakllantirish asosiy vazifa qilib belgilanadi. Inson hammadan avval o‘z mamlakatining farzandi, vatan manfaatlarini diliga jo qilgan fuqarodir. O‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda ma’naviy merosimiz – tarixiy, adabiy-badiiy manbalar bilan tanishtirish vositasida O‘zbekiston mustaqilligi davrida erishilgan yutuqlar, uning o‘tmishi va kelajagi, boy madaniyati, ma’naviyati, ilmiy salohiyati to‘g‘risidakeng tasavvur hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Insonning jamiki orzulari Vatan bag‘rida kamol topadi, yuksak pog‘onalarga ko‘tariladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘qish-dolzARB faoliyat turidir. Yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash – davlat siyosati bilan bog‘liq zamonaviy ta’limming ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda, hamda, yurtimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi ona Vatanni himoya qilishi, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishi hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkon darajada hissa qo‘sishi bilan o‘lchanadi. “Vatanparvar – o‘z vatani kamoloti yo‘lida, o‘z xalqiga muhabbat tufayli kuch – g‘ayrati tugul jonini ham ayamaydigan, xalqi va vatanining ozodligi, farovonligi uchun bor – budini fido qiluvchi insondir”, - degan ekan mutafakkirlar.

Har bir insonga bir umr hamroh bo‘ladigan insoniy fazilatlar – ezgulik, yaxshilik, fidoyilik,insof, rahm-shafqat kabi xislatlar dastlab oilada shakllanadi. Binobarin, barkamol, ma’nan boy, axloqan pok va jismonan sog‘lom kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish dastlab

oilada amalga oshiriladi. Vatanni sevish avvalo oiladan boshlanadi, insonlarni bir-birini hurmat qilish va qadrlash, har qanday ezgu ishlarda bir-birini qo'llab – quvvatlash, mehnatlarini e'tirof etish kabi insoniy sifatlar avvalo bolalik davridan boshlab oiladan shakllanib keladi.

Tinchlikni qadriga yetish, uni saqlab turishda oilada ota-onaning roli katta. Bolani vatanparvarlik ruhida tayyorlashning asosiy mezonlari avvalo oiladan boshlanadi. Vatan tuyg‘usi har bir insonning qoniga ona allasi, bolalikda eshitgan she'r, qo'shiqlari bilan kiradi. Vatanparvarlik tuyg‘usi go'daklikdan boshlab shakllantirilsa, u so'nggi nafasgacha boqiy bo'ladi. Ota-onsa farzandlariga tinchlik oliy ne'mat ekanligi, tinchlik hukm surayotganligi sababli farovon hayot kechirayotganimiz to'g'risida muntazam tushuntirib borishlari zarur. Tushuntirish bilan birga farzandlarida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirib borishi zarur. Shundagina farzandlarimiz o'z yurti uchun, jamiyat uchun kerakli shaxs bo'lib voyaga yetishadi. Ma'naviy tushunchalar to'liq singdirilmagan, milliy mafkura va milliy go'yalar bilan tanishtirishda bo'shliqlar qoldirilgan o'quvchilar turli xil huquqbazarliklarni sodir etishga moyil bo'ladi. Aslida huquqbazarlik – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Har qanday sodir qilingan huquqbazarlikning sababini o'rganish muhimdir. Bu haqda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 5 fevralda bo'lib o'tgan 2024 yilda ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o'tgan videoselektor yig'ilishida ham ta'kidlab o'tdilar. Yig'ilishda maktab ta'limidagi islohotlarlarni yanada jadallashtirishga qaratilgan vazifalar belgilab berildi. Huquqbazarliklarni oldini olish uchun o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va boshlang'ich kasb ma'lumotlarini o'rgatish hamda kasbga yo'naltirish, tarbiyasi va o'qishida muammo bo'lgan o'quvchilarning ota – onalari va mahalla faollari hamda keng jamoatchilik bilan birga ishlab, muammolarni yechishga qaratilgan aniq choralarini ko'rish muhimligini qayd etib o'tdilar. Bunda eng muhimi o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda "huquqbazarlikka qarshi immunitet" yaratish bo'yicha tizim qilish zarurligi ta'kidlandi. Mahalla raislari har oy maktablarda ota – onalar bilan uchrashib, mahalla va mактабдаги мухитни мухокама qilishi maqsadga muvofiq ekani ko'rsatib o'tildi. Maktablarda taniqli shoir va yozuvchilar, sportchilar, faxriylar, jamiyatda obro'ga ega insonlar bilan uchrashuvlarni ko'paytirish lozimligini ta'kidladilar prezidentimiz. Bolalar tarbiyasini yaxshilashga, ota – onalar dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan milliy kontentni mahalla va ta'lim muassasalariga yetkazib turish yuqorida aytilgan "huquqbazarlikka qarshi immunitet" yaratish bo'yicha tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lishi lozimligi ta'kidlab o'tildi. Xulosa qilib aytganimizda, har bir yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berishdan asosiy maqsad ham vatanimizning istiqboli, yurtimizning

farovonligi talablari darajasidagi yetuk mutaxassis kadrlarni yetkazib berishdan iborat. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar o‘rtasida huquqbazarlikni oldini olish bo‘yicha ma’naviy tarbiya vositasida o‘quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish o‘quv predmetlari mazmunida o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda o‘quv predmetlarini o‘qitishda hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkillashtirishda, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarini ko‘proq jalb qilish yuqori samara beradi. Mamlakatimiz yoshlarining katta qismini qamrab olgan umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘tkazilayotgan bunday ma’naviy-ma’rifiy ishlarni oqilona va maqsadga muvofiq tashkil etish umum davlat siyosati miqyosidagi vazifalardan biridir. Zero, Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”.

### **Adabiyotlar ro‘yhati**

1. Sh. Mirziyoyevning 2024 yil 5 fevraldagagi “2024 yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tgan videoselektor yig‘ilishi”dagi nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 369-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori" - Toshkent. Sharq. 1997-y.
4. Aliyev A. Ma’naviyat, kadriyat va badiiyat. - T.: Ma’naviyat, 2000.
5. Tursunova O. "Oilada bola tarbiyasi" Toshkent 1995-y
6. Alikulov X. Gumanistik meros va shaxs ma’naviy kamoloti. -Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
7. O.Musurmonova. “O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish”. T. 1993.
8. S.Komilova “Yoshlar tarbiyasida ilmiy merosimizning o‘rnii” T., “Mehnat” 2000 yil.